

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

3-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 3 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

**22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:**

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

**23.00.00- SIYOSIY FANLAR**

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI .....	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322



<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372
<b>12.00.00 - YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI .....	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI .....	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI .....	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH .....	433-442
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI .....	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI .....	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH .....	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI .....	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV .....	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLTLARI .....	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI .....	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevich</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafuz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **INTEGRITY AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT STRATEGIES OF NEW UZBEKISTAN**

**Murotov Elyor,**

Teacher of the Denov entrepreneurship and pedagogy institute

**Abstract.** This article analyzes the concept of "New Uzbekistan" as well as the significance of the Action Strategy, the "New Uzbekistan" concept, and the 2030 Strategy in its formation and development. The interrelated aspects of these strategic documents are examined. Additionally, the directions of Uzbekistan's development in the new era are explored, along with an analytical review of various philosophical approaches to their implementation.

**Keywords:** New Uzbekistan, human, society, Action Strategy, "New Uzbekistan" strategy, Uzbekistan-2030, development directions, philosophical approaches.

---

## **YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIKI VA FALSAFIY TAHLILI**

**Murotov Elyor Narzillo o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston tushunchasi, uni yaratish va rivojlantirishda Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston konsepsiyasi va 2030 strategiyalarining ahamiyati hamda ularning o'zaro bir-biri bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonning yangi davrdagi taraqqiyot yo'nalishlari, ularni amalga oshirishga turli falsafiy yondashuvlar bilan tahliliy yondashilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, inson, jamiyat, Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston strategiyasi, O'zbekiston -2030, taraqqiyot yo'nalishlari, falsafiy yondashuvlar.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N30>

**Kirish.** Yangi O'zbekiston tushunchasi mamlakatning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlariga tayaniladigan, biroq yangi strategik yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot modelini anglatadi. Bu tushunchada adolatli fuqarolik jamiyati, xalq manfaatlarini ustuvor qo'yish, iqtisodiy va siyosiy liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish kabi tamoyillar mujassamlashgan. Ma'naviy-mafkuraviy islohotlar esa jamiyatning ma'naviy yuksalishi, aholining ijtimoiy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi asosida yangi tafakkurni rivojlantirishni nazarda tutadi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi: "Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar, puxta o'ylangan istiqbolli rejalar, yangi marra va g'alabalar kerak bo'ladi"[1.7].

Yangi O'zbekiston tushunchasining ilmiy tahlili uni bir nechta yondashuvlarda ko'rib chiqishni talab qiladi. Masalan, Yangi O'zbekiston modelini chuqur tushunish uchun sistemaviy yondashuv talab etiladi. Bu yondashuvga ko'ra, jamiyat – bu bir-biri bilan uzviy bog'langan tizimlar majmuasidir. Bu majmua o'zida siyosat va huquq tizimi, iqtisodiy modellar, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar, ilm-fan va ta'lim tizimi mujassam etib, ularning har biri yaxlit rivojlanish

strategiyasini tashkil etadi. Ushbu g'oyani yanada chuqurroq anglab komparativ tahlil (qiyosiy metod)dan foydalanish mumkin. Bu borda Yangi O'zbekiston g'oyasi boshqa davlatlar tajribasi bilan qiyoslab tahlil qilinadi. Masalan, Janubiy Koreyaning – innovatsion taraqqiyot va ta'lim strategiyalari, Singapurning – kuchli iqtisodiy islohotlar va huquqiy tizim konsepsiyasi yoki Turkiyaning – milliy va diniy qadriyatlarni saqlab, modernizatsiya jarayonlarini olib borish konsepsiyalarini keltirish mumkin. O'zbekiston bu tajribalardan o'z sharoitiga mos yondashuvni tanlamoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy mahalliy adabiyotlarda Yangi O'zbekiston strategiyasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa ko'plab jihatlari, ular davlat va jamiyat hayotini reallashtirish muammosining o'rganilish darajasini sarhisob qilsak, ushbu maqola mavzusi falsafiy tadqiqotlarda ham anchagina keng doirada tahlil qilingan. Ularni hal qilish uchun tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan, jumladan: muammoli — xronologik – Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston strategiyasi va O'zbekiston – 2030 strategiyasining uzviyligi, uni shaxs, jamiyat va davlat hayotida reallashtirishning usullarini aniqlash qaratiladi. Qiyosiy-tarixiy uslub asosida uchta strategiyaning tarixiy ildizlari, tajribalari va hozirgi kunda ularning aloqadorligi o'rganilgan. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar usuli esa shaxs, jamiyat va davlat hayotining turli sohalarida islohotlarni amalga oshirish jarayoni, ular bilan aloqador tendensiyalar va o'zgarishlarni aniqlashni ko'zda tusa, mantiqiy usul — mavjud hodisa va jarayonlar o'rtasida aniq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Mavzu maqolada ushbu usullardan birgalikda foydalanish mavjud muammoni aniqroq va chuqurroq tekshirishga imkon berdi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ko'plab mahalliy olimlar va xorijiy ekspertlar Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining falsafiy tahlilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borishgan. Bu tadqiqotlarda O'zbekiston taraqqiyotining strategik dasturlari, unda belgilangan vazifalarning nazariy, tashkiliy va amaliy masalalarini umumlashtirishdan iborat. Jumladan, O'zbekiston prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b., Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2018. –508 b., Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b., Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2020. – 456 b., Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2023. – 408 b., Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2023. – 520 b., Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2023. – 392 b., Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – vatanimiz. 8-jild. — Toshkent, “O'zbekiston” NMIU, 2024. — 344 b., “Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston” kabi asarlarida yangilanayotgan o'zbek jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va roli haqidagi mulohazalar ilgari surilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yangi O'zbekiston g'oyasi bugungi globallashuv sharoitida milliy ma'naviy tamoyillarni saqlab qolish va ularni rivojlantirishni maqsad qiladi. Chunki, jamiyatning ma'naviy yuksalishi iqtisodiy taraqqiyot bilan parallel tarzda borishi kerak. Bu o'z navbatida dunyodagi turli mafkuraviy ta'sirlarga qarshi milliy mafkurani mustahkamlash lozim. “Yangi O'zbekiston strategiyasi, olijanob niyatlarni amalga oshirish, yangi hayot qurish yo'lida beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoiylik va bunyodkorlikni, yanada katta

jonbozlikni talab etmoqda”[2.20]. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi chuqur falsafiy asoslarga ega bo‘lib, uning rivojlanishi bir necha fundamental falsafiy tamoyillarga tayanadi.

Masalaning dialektik taraqqiyot nazariyasiga ko‘ra tahlili uning turli murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Dialektikaga ko‘ra, har bir jamiyat doimiy ravishda qarama-qarshiliklar ichida taraqqiy etadi. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi ham tarixiy an‘analar va zamonaviy g‘oyalar uyg‘unligi asosida shakllanmoqda. Bu borada milliy o‘zlikni saqlab qolish globallashuv jarayonlariga moslashish, davlat boshqaruvining markazlashganligi demokratik tamoyillarni rivojlantirish, iqtisodiy erkinlik ijtimoiy himoya kabi qarama-qarshiliklar o‘z o‘rnida jamiyat taraqqiyotini rag‘batlantiradi va yangi bosqichlarga olib chiqadi.

Masalaga ekzistensialistik nuqtai nazardan yondashsak, Yangi O‘zbekiston insonning ma‘naviy ozodligi, shaxs sifatida o‘zini anglash va jamiyatdagi faol ishtiroki asosida shakllanadi. Masalan, inson qadri – davlat siyosatining markaziy nuqtasi etib belgilandi, jamiyatda ma‘naviy erkinlik va shaxsiy yuksalishni ta‘minlash ega uning asosini tashkil qiladi. Xususan, Yangi O‘zbekistonda har bir shaxs o‘z hayoti va jamiyat rivojiga mas‘ul ekanligini anglashi kerak.

Tadqiq qilinayotgan muammoga germenevtika (tafsir va ma‘no talqin qilish) nuqtai nazaridan qaralganda, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi tarixiy ma‘naviy merosni qayta o‘qish va uni zamonaviy kontekstda jonlantirish jarayonidir. Bu g‘oyaning tarixiy ildizlari Avesto, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiy, Furqat, Behbudiy kabi allomalarning g‘oyalari oziqlandi va ular bugungi kunda qayta talqin qilinmoqda. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ma‘naviy aloqalarni yangicha anglashni taqozo qilmoqda. Shuningdek, bu ulug‘vor mafkuraning jamiyat hayotida moddiylashuvi yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi va ularning ma‘naviy an‘analar bilan uyg‘unligiga asosida rivojlanmoqda.

Pragmatik yondashuvga ko‘ra, g‘oyalar va nazariyalar ular amaliyotda o‘z samarasini bersagina qimmatga ega. Yangi O‘zbekiston strategiyasida pragmatizm quyidagicha namoyon bo‘ladi: Davlat islohotlari xalq manfaatlariga real foyda keltirishi lozim. Ma‘naviy-mafkuraviy islohotlar amaliy natija berishi kerak (masalan, yoshlar ma‘naviyatini oshirish, jamiyatda huquqiy ongni kuchaytirish). Boshqaruv tizimi va iqtisodiyotda samaradorlik asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston tarixidagi turli davrlardagi mafkuraviy jarayonlar tarixiy tahlil asosida o‘rganiladi. Chunki bunyod etilayotgan Yangi O‘zbekiston rivojlangan tarixiy davrlarning hayotiy g‘oya va mafkuralaridan oziqlanadi. “Xalqimizning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin olib, umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilgan Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etish g‘oyalari buyuk ajdodlarimizning ham orzu-intilishlarini o‘zida mujassam qilgan, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi[3.35]. Masalan, Temuriylar davri – kuchli davlatchilik va ma‘naviy taraqqiyot uyg‘unligini o‘zida namoyon qilgan bo‘lib, bugungi kun davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, jadidlar harakati vakillarining maorif va madaniyat orqali jamiyatni modernizatsiya qilish, taraqqiyotga erishish g‘oyalari ham bugungi taraqqiyot g‘oyasi uchun tarixiy ildiz hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston tushunchasida mujassam bo‘lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning eng etuk vakillarini uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida amaliy harakatlarga unday keldi”[4.17]. Shuningdek, sobiq Sovet davrining mafkuraviy nazorat va uning ijtimoiy ta‘siridan tegishli xulosalar chiqarish talab qilinadi. Mustaqillik yillari – milliy o‘zlikni tiklash va yangi model yaratishda muhim tarixiy yutuqlarni o‘zida aks ettiradi. Bu tahlillar asosida Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi shakllantirilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki moddiy taraqqiyotning o'zi jamiyatning uzluksiz rivojlanishini ta'minlamaydi. Ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jamiyatning ma'naviy kamoloti, milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Muammoga dialektik yondashuv Yangi O'zbekiston mafkurasi va rivojlanish qarama-qarshiliklarini ko'rsatib beradi. Dialektikaga ko'ra, taraqqiyot – bu qarama-qarshiliklarning echimini topish va yangi sintezga erishish jarayonidir. Ma'naviy-ma'rifiy sohada ham an'ana va zamonaviylik, milliylik va globallik, ma'naviy qadriyatlar va bozor iqtisodiyoti o'rtasidagi ziddiyatlar bor. Bu o'rinda an'ana va zamonaviylik, milliylik va globallik, ilm-fan va diniy-ma'rifiy qarashlar ziddiyatli jarayonlar hisoblanadi. Bu qarama qarshiliklar milliy an'analarni saqlab qolish hamda ularni XXI asr sharoitiga moslashtirish, milliy o'zlikni yo'qotmasdan, jahon sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashish, ilmiy taraqqiyot va ma'naviy an'analarni uyg'unligini ta'minlashni taqozo qiladi.

Ekzistensializm nuqtai nazaridan, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti – insonning o'z shaxsiyat sifatida shakllanishi va o'z hayotini ma'nolantirishi bilan bog'liq. Chunonchi, Yangi O'zbekiston modelida inson – davlat markazidagi asosiy qadriyat ekani, shaxs ma'rifat va bilim orqali o'z taqdirini o'zi belgilaydi, "Ma'rifatli inson – kuchli davlat" g'oyasi shakllanmoqda. Pragmatik yondashuvga ko'ra, faqat nazariy emas, amaliy ma'naviy rivojlanishga ham asoslanadi. Pragmatizmga ko'ra, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar real samara berishi kerak. Undan nafaqat davlat siyosati, balki jamiyat va har bir fuqaro foyda ko'rishi lozim. Ta'lim tizimidagi islohotlar – mafkuraviy ta'limdan erkin fikrlashga o'tish, axborot makoni – yoshlar ma'naviyatini shakllantiruvchi omil, kino, san'at, adabiyot – jamiyatda yangi ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy yangilanish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning hozirgi holatini tahlil qilish uning tavsifini anglashga imkon beradi. Bu jarayon tom ma'noda milliy ma'naviy uyg'unish nomiga monand holda Yangi O'zbekiston modelida milliy qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayonning yana bir xususiyatini "Jadidchilik ruhi" qayta tiklanmoqda, deyish mumkin. Chunki jadidlar harakati o'z vaqtida xalqni bilimli qilish va uni modernizatsiyalashga qaratilgan edi. Hozirgi kunda bu g'oyalar yangi shaklda davom etmoqda. Shuning ma'naviy islohotlarda o'zbek tili va milliy madaniyat davlat siyosatida ustuvorlik kasb etmoqda.

Bugungi o'zbek jamiyatining ma'naviy yangilanishi maorif va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ma'rifiy islohotlar faqat nazariya bo'lib qolmasligi kerak va bu borada "Ma'lumotli odam" emas, "tafakkur qiladigan inson" konsepsiyasi shakllantirilmoqda. Aynan talabalarga erkin fikrlash va ijodiy yondashuv asosida o'qitish metodlari kengaymoqda, diniy bilimlar va dunyoviy bilimlar uyg'unlashtirilmoqda. Hozirgi davr axborot asri ekanligini hisobga olsak, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar axborot makoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatimizda "Axborotga emas, bilimga suyanish" konsepsiyasi shakllanmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida axborot xavfsizligini ta'minlash, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Yangi O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti o'zining istiqbolli jihatlari bilan ahamiyatlidir. Bu borada ma'naviy integratsiya va globallik, yangi ma'naviy elitani shakllantirish, kelajak asrlar ma'rifatparvarligini shakllantirish ko'zda tutilmoqda. Chunonchi, kelajakda milliy ma'naviyat jahon madaniyati va sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashishi kerak. Buning uchun o'zbek adabiyoti, san'ati va madaniyatini jahon sahnasiga olib chiqish, milliy

an'analar va xalqaro innovatsiyalarni uyg'unlashtirish talab qilinadi. Yangi ma'naviy elita shakllanishi istiqbollari esa har bir jamiyatda ma'naviy etakchilar muhim o'rin tutishi bilan bog'liq holda rejalashtirilgan. Yangi O'zbekistonda ziyolilar va yosh olimlar, ma'rifatchilar va ijodkorlar jamiyatni ma'naviy etaklashda muhim rol o'ynaydi, ilm-fan, madaniyat va san'at ahli jamiyatning ma'naviy ravnaqida asosiy kuchga aylanishi kerak. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning uzoq muddatli istiqbollari "Jaholatga qarshi ma'rifat" konsepsiyasini yanada chuqurlashtirish, inson ongini shakllantirish, balki uning erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'rifat va bilim orqali kuchli davlat barpo etish g'oyalariga asoslanadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tuzilishi uzluksiz va bosqichma-bosqich rivojlanishga qaratilgan. U bir necha fundamental yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ular siyosiy-huquqiy islohotlar – adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratiyani mustahkamlash, iqtisodiy taraqqiyot – barqaror rivojlanish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ma'naviy-mafkuraviy islohotlar – Milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ilm-fan va ta'lim rivoji – yangi bilimlar, innovatsiyalar va ilmiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash hamda ekologik barqarorlik – Tabiatni muhofaza qilish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirish kabi yo'nalishlardir. Bu tuzilma O'zbekistonning XXI asrdagi rivojlanish modelini belgilab beradi va uning kelajakda global maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu strategiya "Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli, va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida" qabul qilindi[5].

O'zbekistonning yangi davrdagi taraqqiyot yo'nalishlari bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta strategik konsepsiya orqali shakllandi va ularga 2017–2021-yillar Harakatlar strategiyasi [6] – Mustaqil taraqqiyotdagi yangi bosqichga o'tish asosi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[7] – Mustaqil taraqqiyotning yangi modeli sifatida hamda O'zbekiston – 2030 strategiyasi – Uzoq muddatli rivojlanish istiqboli dasturlari kiradi. Bu strategiyalarning o'zaro aloqadorligini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ushbu bosqichlarning nafaqat tarixiy ahamiyatini, ularning istiqboldagi mohiyatini anglash yordam beradi. Falsafada dialektik yondashuv evolyutsiya va uzviylikni tushunishga qaratilgan. Dialektikaga ko'ra, har bir taraqqiyot jarayoni uzviy evolyutsiyani tashkil etadi, ya'ni har bir yangi bosqich oldingi bosqichdan paydo bo'ladi, undagi yutuq va muammolar tahlil qilinib, yangi strategik yondashuv shakllantiriladi. Tahlillarga ko'ra, Harakatlar strategiyasi (2017–2021) – asosiy tarkibiy islohotlar va modernizatsiya jarayonini tavsiflasa, Yangi O'zbekiston strategiyasi – Harakatlar strategiyasining tabiiy davomi, ya'ni yangi davlatchilik modelini shakllantirishni ko'zda tutadi hamda O'zbekiston – 2030 strategiyasi – o'zgarishlarning chuqurlashuvi va ularning uzoq muddatli natijalarga yo'naltirilishi bilan o'ziga xosligi ko'rinadi. Biz bu jarayonda antitezis va sintez prinsiplari qo'llashimiz mumkin, ya'ni Harakatlar strategiyasidagi ba'zi kamchiliklar (masalan, ba'zi islohotlarning amalga oshirilish sur'ati) Yangi O'zbekiston konsepsiyasida qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi. Bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2030 strategiyasi kelib chiqdi, unda tarmoqli va uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlari aniq belgilandi. Shunday



qilib, bu uch strategiya bir-birini inkor etmaydi, aksincha bir-birini mukammallashtiruvchi dialektik jarayonlarning ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Ekzistensializm va yangi O'zbekiston shaxsini shakllantirish tahlili bu davr shaxsining qiyofasi, uning ustida yurilayotgan insonparvar siyosatning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Ekzistensialistik falsafa shaxsning (insonning) o'z taqdirini mustaqil belgilashini muhim deb biladi. Bu konsepsiyani davlat taraqqiyotiga qo'llasak, O'zbekiston ham o'zining yangi milliy o'zligini shakllantirish jarayonida shaxs manfaatlarini birinchiga o'ringa chiqarishini anglash qiyin bo'lmaydi. Demak, Harakatlar strategiyasi mustaqil O'zbekiston o'z taqdirini qayta belgilash uchun asosiy qadamlarni tashladi (davlat boshqaruvi, iqtisodiy liberallashtiruv, huquqiy islohotlar), Yangi O'zbekiston strategiyasi esa mamlakat o'zini yangi davlatchilik modeli sifatida angladi, ya'ni milliy o'zlik, demokratik qadriyatlar va global maydondagi mavqeyini qayta shakllantirdi. Endi 2030 strategiyasi esa bu jarayonning amaliy natijalari shakllanadigan bosqich, ya'ni mustaqil davlatchilik va jamiyat ongidagi o'zgarishlarning mustahkamlanishini ko'zda tutadi. Bu nuqtai nazardan uchala strategiya ham O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi "ekzistensial qarorlarini" aks ettiradi.

Germenevtikaning ma'nolarni talqin qilish nazariyasi ekanidan kelib chiqsak, davlat strategiyalarining uzviyligini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Demak, Harakatlar strategiyasi – O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'zini qanday anglash kerakligini izladi (yangi ma'no qidirildi), Yangi O'zbekiston strategiyasi mafkuraviy jihatdan milliy qadriyatlar va modernizatsiya uyg'unligi yaratildi (yangi ma'nolar shakllantirildi) hamda 2030 strategiyasi – bu ma'nolar amaliy natijalarga aylantiriladigan bosqich (yangi talqin va amaliyotga ko'chirish jarayoni) hisoblanadi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, strategiyalarning har biri jamiyatdagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning yangi bosqichga chiqishi sifatida ko'rilishi mumkin.

Pragmatizmga ko'ra, har qanday strategiya faqat amaliy natijalar orqali qadrlanadi. Agar biz O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalarini pragmatik yondashuv asosida baholasak Harakatlar strategiyasi – tuzilmaviy va ma'muriy islohotlar amalga oshirildi, islohotlarning dastlabki natijalari ko'rindi. Yangi O'zbekiston strategiyasi esa boshqaruv, iqtisodiyot va mafkura sohasidagi islohotlar chuqurlashtirilishi hamda 2030 strategiyasi uzoq muddatli, samarali natijalarga erishish maqsad qilib qo'yilishi bilan xarakterlanadi. Bu jarayonda har bir bosqich o'zidan keyingi bosqich uchun asos yaratib, "inqilobiy o'zgarishlar emas, balki uzluksiz evolyutsion taraqqiyot" tamoyili amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

**Natija va xulosalar.** Yangi O'zbekiston strategiyasi falsafiy, ilmiy va amaliy asoslarga ega bo'lib, uning mohiyati dialektik taraqqiyot, inson qadri, milliy merosni qayta talqin qilish va pragmatik yondashuv kabi asosiy tamoyillar bilan bog'liq. Uning muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy va siyosiy islohotlarga, balki jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy barqarorligiga ham bog'liqdir. Yangi O'zbekiston strategiyasining muvaffaqiyati uning ma'naviy-mafkuraviy negizlari qanchalik mustahkamligiga bog'liq. Bunda milliy o'zlik va global fikrlashni uyg'unlashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida mafkuraviy jihatdan sog'lom qarashlarni shakllantirish lozim. Davlat siyosatining barcha sohalarida ma'naviy qadriyatlar ustuvor bo'lishi kerak.

Yangi O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti dialektik taraqqiyot asosida shakllanmoqda, ya'ni an'ana va zamonaviylik uyg'unlashmoqda. Shuningdek, shaxs markaziy o'rinda – inson qadri, ma'rifatli jamiyatni shakllantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu jarayon amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar hayotga real ta'sir

o'tkazishi kerak. Bu jarayondagi islohotlar uzoq muddatli istiqbolga ega – XXI asr sharoitida yangi ma'naviy tafakkurni shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Yangi O'zbekiston ma'rifatli, bilimli va ma'naviy etuk jamiyatni shakllantirish yo'lida bormoqda.

Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston konsepsiyasi va 2030 strategiyasi bir-biridan ajralgan emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga asos soluvchi jarayonlardir. Dialektik yondashuvga ko'ra, bu strategiyalar bir-birini inkor etmasdan, taraqqiyot jarayonida bir-birini mukammallashtirmoqda. Ekzistensial yondashuviga ko'ra, O'zbekiston mustaqil davlatchilikni anglab, o'z kelajagini belgilamoqda. Germentevika yondashuviga ko'ra, jamiyat va davlat konsepsiyalari yangi ma'nolar bilan boyib, yangi davrga moslashmoqda. Pragmatizm yondashuvi esa barcha strategiyalar amaliy natijalarga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shunday qilib, O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan taraqqiyot yo'li bu uch yirik strategik konsepsiyaning uzviy rivojlanishi sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2024. -B.7
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi– Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2021. -B.20
3. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2024. -B.35
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston" nashriyoti, 2024. -B.17
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son)

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 3 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).